O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDLARNING STRATEGIK MAQSADLARINI ISHLAB CHIQISH ASOSIDA AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH	506
G'afurov Zohidjon	
YOSHLAR STARTAPLARINI VENCHUR FOND LARI ORQALI QO'LLAB-QUVVATLASH IMKONIYATLARI.....	508
Valiev Umid Gulamovich	
"YASHIL IQTISODIYOT" IMKONIYATLARIDAN FOYDALANIB O'ZBEKISTONDA IJTIMOY - IQTIDOY MUAMMAOLARNI XAL ETISH	511
Karimov Nodirbek	



MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA OZIQ-OVQAT, XAVFSIZLIK VA XO'JALIK XIZMATLARINI AUTSORSING ASOSIDA TASHKIL ETISHNING BUDJETGA TA'SIRI.....	514
Xamidov Anis Choriyevich	
THE ROLE OF AMINO ACIDS IN THE LIFE OF ATHLETES.....	518
Yoldasheva Roila Jumaevna	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ИНСТИТУТОВ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРЦИИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНОЙ КОНКУРЕНЦИИ.....	525
Солиев Абдумажид Джабборович	
O'ZBEKISTONDA KAPITAL BOZORI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH HOLATI TAHLILI	529
Holov Sherali	
BANK TIZIMIDA KREDIT RISKLARINI KAMAYTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	532
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
BOZOR IQTISODIYOTIDA DAROMADLAR TAQSIMOTI VA TENGSIZLIK MUAMMOSI	536
Fayziyeva Dilso'z Bahodirovna	
KICHIK BIZNESNI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA GAROVSIZ MIKROKREDITLARNI QAYTA MOLIVALASHTIRISH TIZIMINING AHAMIYATI	540
Annaklichev Sahi Saparmuhamedovich	
KORPORATIV TUZILMALARNING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISH.....	543
Jummatova Gulzar Maxmud qizi	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARIDAN FOYDALANISH	548
Achilov Ilmurad Neymatovich	
TOVAR-XOMASHYO BIRJALARIDA SAVDO TURLARINING SHAKLLANISHI VA ULARNING BOZOR SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	553
Xudayberdiyev Kamoliddin Ustemirovich	
THE EVOLUTION OF E-COMMERCE IN UZBEKISTAN: TRENDS, DRIVERS, AND FUTURE PROSPECTS.....	555
Madina Abdujabborova, Nozima Zufarova Professor	
TURIZM SOHASIDA MEHMONXONA XIZMATLARINING MAZMUNI VA RIVOJLANTIRISHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI	559
Mir-Jafarova Aziza Javoxirovna	
CHAKANA SAVDO KORXONASIDA BREND STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARINING O'RNI	563
Ro'zimatov Shohboz Hamdambek o'g'li	
MINTAQA TURIZM POTENTIALI TUSHUNCHASINING XUSUSIYATLARIGA OID ILMIY NAZARIY YONDASHUVLAR.....	568
Madaminova Sanabar Askarovna	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINI JORIY ETISH USULLARI.....	571
Jabborov Baxriddin Rashidovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI MOLIVALASHTIRISH ORQALI IQTISODIYOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	574
S.Xalikov	
INVESTITSIYA MUHITI JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	577
U.N.Muxammadiyev	
MIJOZ VA BANK MUNOSABATLARINI MARKETING TAMOYILLARI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	579
Temirova Sevara Baxodirovna	
DAVLAT BANDLIK SIYOSATINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	585
Abidova Shahnoza Abduvaliyevna	
IKTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MAKROIQTISODIY NOMUTANOSIBLIK LARNING TIZIMLI TA'SIRI	588
Uralov Shavkat Maxramovich	
HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINING TARIXIY VA ZAMONAVIY ASPEKTLARI	592
G'ulomov Boburjon G'ogurjon o'g'li	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA 2017 – 2024-YILLARDA AMALGA OSHIRILGAN INVESTITSIYA LOYIHALARINING TARKIBIY VA DINAMIK TAHLILI.....	595
Sultanov Anvar Abdullaevich	



MAMLAKATIMIZDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I VA UNI PROGNOZ QILISH USULLARI	598
Sobirova Nigora Baxtiyor qizi	
ICT WEEK UZBEKISTAN 2025: MILLIY TEXNOLOGIYALAR HAFTALIGINING YAKUNLARI VA ULARNING O'ZBEKISTON IT-EKOTIZIMIGA TA'SIRI	602
Jumaboyev Akmaljon Sheraliyevich	
NEFT-GAZ TARMOG'I KORXONALARIDA SOLIQ IMTIYOZLARINI QO'LLASH SAMARADORLIGI.....	606
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	609
Qarshiyeva Moxinur Olim qizi	
TIJORAT BANKLARIDA "BIG DATA" TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA MIJOZLAR BAZASINI SEGMENTLASH VA DAROMADLILIKNI OSHIRISH	612
Ajibayeva Raiya Maxsutovna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQAMLI XIZMATLAR BOZORIDAGI O'RNI: HOLAT VA TENDENSIYALAR	614
Babanazarova Gulzar Ziuatdinovna	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ОЦЕНКЕ УРОВНЯ ЗРЕЛОСТИ ESG-ПРАКТИК НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ.....	617
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
FINTECH ASOSIDA ISLOMIY MOLIIA MAHSULOTLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	619
Adilov Zuxriddin Marip o'g'li	
"YASHIL" INVESTITSIYALARNI RAG'BATLANTIRISHNING INSTITUTIONAL MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	621
Ibragimov Xaxid Taxirovich	
CULTURAL DIMENSIONS AND ORGANIZATIONAL TRANSFORMATION: EVIDENCE FROM SAUDI ARABIA AND UZBEKISTAN.....	624
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
SURXONDARYO VILOYATIDA MAHALLIY BUDJETLAR MOLIYAVIY IMKONIYATLARINI KUCHAYTIRISH VA XARAJATLARNI BARQAROR MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI	629
Safarmurodova Marjona To'raqulovna	
SOLIQ TIZIMIDA FOYDALANUVCHI XATOLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI	632
Xatamov Alisher Farxadovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH ORQALI RAG'BATLANTIRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH.....	635
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TALABALAR INNOVATSION RIVOJLANISH MARKAZLARI FUNKSIONAL SALOHİYATINI KENGAYTIRISH YO'LLARI	639
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li	
DAVLAT XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	644
Abdullayev Bobirjon Mamurjanovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI AMALGA OSHIRISH TAHLILI.....	648
Abdurahmonov Abdumalik Abdurashidovich	
SAMARQAND VILOYATIDA QISHLOQ TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	650
Aktamov Olimjon Abdug'ani o'g'li	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUVNI QO'LLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	657
Hakimov Nodir Nazarovich	
DAVLAT XARIDLARINI NAZORAT QILISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	660
Hakimov Nodir Nazarovich	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	663
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich	
O'ZBEKISTON KIMYO SANOATI KORXONALARIDA RESURS VA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MAKROIQTISODIY YO'NALISHLARI.....	666
Suyarov Shahzod Salim o'g'li	
INVESTITSIYON MUHITNI BOSHQARISHNING DOLZARB MUAMMALARINI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI.....	669
To'rayev Jasurali To'rayevich	



ВЛИЯНИЕ AML/КУС ПРОЦЕДУР НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОНЛАЙН ТРАНСГРАНИЧНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ	672
Садыков Азиз Миршарапович	
TOWARDS A LOW-CARBON FUTURE: RENEWABLE ENERGY AND EFFICIENCY POLICIES IN UZBEKISTAN	676
Khakimdjanoval Surayyo Khabibullayevna	
ENERGY SECURITY UNDER GLOBAL CRISES: GEOPOLITICAL RISKS AND RENEWABLE PATHWAYS IN OIL AND GAS SYSTEMS	679
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi	
MINTAQAVIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI BAHOLASHNING DOLZARB MASALALARI	681
Islamov Anvar Ashirqulovich	
RAQAMLI TURIZMDA ISTE'MOLCHILARNING XATTI-HARAKATLARI BO'YICHA NAZARIY YONDASHUVLAR	684
Jumayev Bobomurod Nurmaxmat o'g'li	
ELEKTRON XIZMATLARNI TAKOMILLASHTIRISHDA SMART SHARTNOMALARNI QO'LLASH	687
Otaboyev Nodirbek Oybek o'g'li	
IMPROVING THE ACCOUNTING FOR ENVIRONMENTAL LIABILITIES AND PROVISIONS IN THE BUILDING MATERIALS INDUSTRY	690
Komiljon Abdullajonovich Mirzaev	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA BIOLOGIK AKTIVLAR AUDITINI REJALASHTIRISH VA USLUBIY JIHLATLARINI TAKOMILLASHTIRISH	693
Axmetova S. S.	
BOJXONA IMTIYOZLARINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH	697
Latipov Jahongir Shavkatovich	



BOJXONA IMTIYOZLARINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH

Latipov Jahongir Shavkatovich
Navoiy viloyati bojxona boshqarmasi
Bojxona to'lovlari va statistikasi sho'bası
katta inspektori, bojxona xizmati mayori

Annotatsiya. Mazkur maqolada bojxona imtiyozlarining davlat budjeti daromadlariga ta'siri iqtisodiy jihatdan baholanadi. Bojxona to'lovlari bo'yicha beriladigan imtiyozlarning fiskal samaradorligi, budjet daromadlaridagi yo'qotishlar hamda ularning investitsiyaviy faollik, ishlab chiqarishni rag'batlantirish va iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, bojxona imtiyozlarini taqdim etish mexanizmlarini takomillashtirish, ularning manzilliligi va samaradorligini oshirish hamda davlat budjeti daromadlari barqarorligini ta'minlash bo'yicha ilmiy-amaliy yondashuvlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: bojxona imtiyozlari, davlat budjeti, budjet daromadlari, bojxona to'lovlari, fiskal samaradorlik, soliq xarajatlari, investitsiyaviy faollik, iqtisodiy rag'batlantirish, budjet yo'qotishlari, fiskal siyosat.

Abstract. This article provides an economic assessment of the impact of customs exemptions on state budget revenues. It analyzes the fiscal efficiency of customs exemptions, associated budget revenue losses, and their effects on investment activity, production incentives, and economic growth. The article also discusses scientific and practical approaches to improving the mechanisms for granting customs exemptions, enhancing their targeting and effectiveness, and ensuring the stability of state budget revenues.

Keywords: customs exemptions, state budget, budget revenues, customs payments, fiscal efficiency, tax expenditures, investment activity, economic incentives, budget revenue losses, fiscal policy.

Аннотация. В статье дана экономическая оценка влияния таможенных льгот на доходы государственного бюджета. Проанализированы фискальная эффективность льгот по таможенным платежам, связанные с ними потери доходов бюджета, а также их влияние на инвестиционную активность, стимулирование производства и экономический рост. Кроме того, рассмотрены научно-практические подходы к совершенствованию механизмов предоставления таможенных льгот, повышению их адресности и эффективности, а также обеспечению стабильности доходов государственного бюджета.

Ключевые слова: таможенные льготы, государственный бюджет, доходы бюджета, таможенные платежи, фискальная эффективность, налоговые расходы, инвестиционная активность, экономическое стимулирование, потери доходов бюджета, фискальная политика.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish o'rtasidagi muvozanatni shakllantirish fiskal siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda bojxona imtiyozlari tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarini qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda ustuvor tarmoqlarning raqobatbardoshligini oshirish vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Biroq bojxona to'lovlari bo'yicha beriladigan imtiyozlar, bir tomondan, iqtisodiy faollikni rag'batlantirsa, ikkinchi tomondan, davlat budjetiga tushishi mumkin bo'lgan daromadlarning kamayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli bojxona imtiyozlarining fiskal va iqtisodiy natijalarini kompleks baholash davlat moliyasini samarali boshqarishning zarur shartlaridan biri hisoblanadi.

Jahon amaliyotida bojxona imtiyozlaridan iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini rivojlantirish, yangi texnologiyalar importini rag'batlantirish, eksport salohiyatini oshirish va investitsion muhitni yaxshilash maqsadida keng foydalaniladi. Shu bilan birga, xalqaro tajriba bojxona imtiyozlarining yetarli darajada



asoslanmasdan qo'llanilishi davlat budjeti daromadlariga, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi raqobat muhitiga hamda fiskal siyosat samaradorligiga muayyan ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatadi. Shuning uchun rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda bojxona imtiyozlarining natijadorligini muntazam kuzatib borish, ularni aniq mezonlar asosida baholash va iqtisodiy natijadorligi yetarli bo'lmagan imtiyozlarni qayta ko'rib chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.


O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish, tashqi savdo faoliyatini rivojlantirish va investitsion jozibadorlikni oshirish jarayonida bojxona imtiyozlari muhim iqtisodiy rag'batlantirish vositalaridan biri sifatida qo'llanilmoqda. Xususan, ishlab chiqarishni texnologik yangilash, zamonaviy asbob-uskunalarni import qilish, mahalliyashtirish darajasini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan imtiyozlar iqtisodiy rivojlanishga muayyan ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq bunday imtiyozlarning davlat budjeti daromadlariga bevosita va bilvosita ta'sirini aniqlash, ular natijasida yuzaga keladigan fiskal yo'qotishlarni iqtisodiy samaralar bilan qiyosiy baholash hamda imtiyozlarning haqiqiy natijadorligini aniqlash zarurati mazkur masalaning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Bizning fikrimizcha, bojxona imtiyozlarini faqat davlat budjetiga kelib tushmagan bojxona to'lovlari miqdori nuqtayi nazaridan baholash yetarli emas. Chunki samarali bojxona imtiyozi qisqa muddatda budjet daromadlarining muayyan qisqarishiga sabab bo'lsa-da, uzoq muddatda ishlab chiqarish hajmining kengayishi, investitsiyalarning ko'payishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va boshqa soliq tushumlarining ortishi orqali qo'shimcha fiskal samara yaratishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolaning asosiy maqsadi bojxona imtiyozlarining davlat budjeti daromadlariga ta'sirini fiskal yo'qotishlar va iqtisodiy samaralar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asosida baholash hamda ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat.

Bojxona imtiyozlarining davlat budjeti daromadlariga ta'sirini baholashda, avvalo, tashqi savdo operatsiyalari ko'lam va import hajmining o'zgarish dinamikasini hisobga olish muhimdir. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda mamlakat tashqi savdo aylanmasi 81,2 mlrd AQSH dollarini tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 20,7 foizga oshgan. Jumladan, eksport hajmi 33,8 mlrd AQSH dollariga, import esa 47,4 mlrd AQSH dollariga yetib, importning o'sish sur'ati 18,5 foizni tashkil qilgan. Import operatsiyalari hajmining bunday kengayishi bojxona to'lovlari bo'yicha potensial fiskal bazaning ham ortib borayotganini anglatadi. Shu bilan birga, import qilinadigan ayrim tovarlar, texnologik uskunalar va investitsion loyihalar doirasida bojxona imtiyozlarining qo'llanilishi davlat budjetiga undirilishi mumkin bo'lgan tushumlarning muayyan qismini qisqa muddatda kamaytirishi mumkin. Demak, bojxona imtiyozlarini baholashda ularning miqdorini import hajmi va potensial bojxona tushumlari bilan o'zaro bog'liqlikda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Bojxona imtiyozlarining fiskal samaradorligi faqat davlat budjetiga undirilmagan bojxona to'lovlari miqdori bilan chegaralanmaydi. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portalida qayd etilganidek, bojxona organlarining asosiy vazifalari qatoriga mamlakatning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash hamda bojxona bojlari to'g'ri hisoblanishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilish kiradi. Shu nuqtayi nazardan, bojxona imtiyozlari ishlab chiqarishni texnologik modernizatsiya qilish, investitsiyaviy faollikni oshirish va korxonalar ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishga xizmat qilgan hollarda, dastlabki fiskal yo'qotishlar kelgusida qo'shimcha soliq tushumlari va iqtisodiy faollikning ortishi orqali qoplanishi mumkin. Biroq imtiyoz natijasida ishlab chiqarish, bandlik, eksport yoki qo'shilgan qiymat hajmida sezilarli o'sish yuz bermasa, bunday holatlarda imtiyozlarning iqtisodiy natijadorligini oshirish va ularni aniq samaradorlik mezonlari asosida qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Shuning uchun har bir bojxona imtiyozini uning bevosita fiskal qiymati bilan bir qatorda, yaratilgan iqtisodiy natija asosida ham baholash zarur.

Yuqoridagi tahlillar bojxona imtiyozlarining davlat budjeti daromadlariga ta'sirini baholashda ikki tomonlama yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Birinchi yo'nalishda imtiyoz natijasida davlat budjetiga kelib tushmagan bojxona boji, qo'shilgan qiymat solig'i va boshqa tegishli to'lovlar fiskal yo'qotish sifatida aniqlanishi lozim. Ikkinchi yo'nalishda esa ushbu imtiyoz hisobidan jalb qilingan investitsiyalar, yaratilgan yangi ishlab chiqarish quvvatlari, ish o'rinlari, eksport hajmi va qo'shimcha soliq tushumlari baholanishi maqsadga muvofiq. O'zbekistonda tashqi savdo operatsiyalari ko'lamining kengayib borishi bojxona imtiyozlarining fiskal samaradorligini muntazam kuzatib borish zaruratini yanada kuchaytiradi. Muallif fikricha, bojxona imtiyozlarini baholashda «berilgan imtiyoz miqdori — yaratilgan iqtisodiy samara — shakllangan qo'shimcha budjet tushumi» o'zaro bog'liqligiga asoslangan natijadorlik mezonini joriy etish maqsadga muvofiq bo'lib, bu samarasiz imtiyozlarni maqbullashtirish va davlat budjeti daromad bazasining barqarorligini oshirish imkonini beradi.



Bojxona imtiyozlarining fiskal ta'sirdan yakuniy iqtisodiy natijadorlikkacha bo'lgan o'zaro bog'liqligi

1-rasm. Bojxona imtiyozlarining davlat budjeti daromadlariga ta'sirini baholash mexanizmi¹

Rasmda bojxona imtiyozlarining davlat budjeti daromadlariga ta'siri ketma-ket iqtisodiy jarayon sifatida ifodalangan. Unga ko'ra, bojxona to'lovlari bo'yicha taqdim etiladigan yengilliklar dastlab qisqa muddatli fiskal ta'sirni yuzaga keltiradi, ya'ni davlat budjetiga undirilishi mumkin bo'lgan ayrim tushumlarning kamayishiga sabab bo'ladi. Biroq mazkur holatni faqat budjet yo'qotishi sifatida baholash imtiyozlarning iqtisodiy mohiyatini to'liq ochib bermaydi. Chunki maqsadli va samarali qo'llanilgan bojxona imtiyozlari investitsiyalarni jalb etish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish hamda bandlik darajasini yaxshilash orqali iqtisodiy faollikni rag'batlantirishi mumkin.

Mazkur iqtisodiy faollikning kengayishi o'rta va uzoq muddatda soliq bazasining ortishi hamda davlat budjetiga qo'shimcha fiskal tushumlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Shu jihatdan bojxona imtiyozlarining haqiqiy natijadorligini aniqlashda qisqa muddatli fiskal yo'qotish bilan uzoq muddatli iqtisodiy va budjet qaytimi o'rtasidagi nisbatni kompleks baholash muhim hisoblanadi. Demak, bojxona imtiyozining samaradorligi uning miqdori bilan emas, balki ushbu imtiyoz evaziga yaratilgan qo'shimcha iqtisodiy qiymat va davlat budjetiga qaytgan fiskal daromadlar ko'lami bilan belgilanishi maqsadga muvofiq.

Muallif yondashuviga ko'ra, rasmda aks ettirilgan bog'liqlik «bojxona imtiyozi → fiskal ta'sir → iqtisodiy samara → qo'shimcha budjet tushumlari → yakuniy natijadorlik» tamoyiliga asoslanadi. Ushbu yondashuv bojxona imtiyozlarini alohida fiskal yengillik sifatida emas, balki davlat budjeti daromadlari va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlovchi iqtisodiy mexanizm sifatida baholash imkonini beradi. Natijada har bir imtiyozning fiskal qiymatini uning amaliy iqtisodiy samarasi bilan taqqoslash, natijadorligi yetarli bo'lmagan imtiyozlarni aniqlash va davlat budjeti daromadlari barqarorligini ta'minlashga qaratilgan asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati yuzaga keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bojxona imtiyozlarining davlat budjeti daromadlariga ta'sirini baholashda ularni faqat undirilmay qolgan bojxona to'lovlari yoki qisqa muddatli fiskal yo'qotishlar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish yetarli emas. Maqsadli va samarali qo'llanilgan imtiyozlar investitsiyalarni jalb etish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratish orqali iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi. Natijada soliq bazasining kengayishi va qo'shimcha budjet tushumlarining shakllanishi uchun iqtisodiy zamin yaratiladi. Shu sababli bojxona imtiyozlarining samaradorligini fiskal yo'qotish, yaratilgan iqtisodiy samara va qo'shimcha budjet tushumlari o'rtasidagi nisbat asosida kompleks baholash maqsadga muvofiqdir.

Bojxona imtiyozlarini boshqarish tizimida ularning natijadorligini muntazam kuzatib borish va aniq iqtisodiy mezonlar asosida baholash mexanizmini takomillashtirish zarur. Bunda har bir imtiyozning investitsiya, ishlab chiqarish, eksport, bandlik va qo'shimcha fiskal tushumlarga ta'sirini aniqlash orqali natijadorligi yuqori va natijadorligi yetarli bo'lmagan imtiyozlarni farqlash imkoniyati yaratiladi. Muallif yondashuviga ko'ra, «bojxona imtiyozi → iqtisodiy samara → qo'shimcha budjet tushumi» bog'liqligiga asoslangan baholash tizimining joriy etilishi imtiyozlarning manzilliligini oshirish, natijadorligi yetarli bo'lmagan fiskal xarajatlarni maqbullashtirish hamda davlat budjeti daromadlari barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

¹ Manba: Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida muallif ishlanmasi



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi: O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 20-yanvardagi O'RQ-400-son «O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksini tasdiqlash to'g'risida»gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-2876122>
2. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi: O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrdagi O'RQ-360-son «O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksini tasdiqlash to'g'risida»gi Qonuni bilan tasdiqlangan // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2013. <https://lex.uz/ru/docs/-2302187>
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi: 2025-yil yanvar–dekabr oylari uchun dastlabki ma'lumot: press-reliz. – Toshkent, 2026. – 21-yanvar.
4. Shadmankulov A.A., Jo'raboyev M. Qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarining fiskal faoliyatdagi o'rni // Izlanuvchi. – 2025. – 1-jild, 7-son. – B. 14–20.
5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining 2025-yildagi ijrosi to'g'risidagi hisobot. – Toshkent, 2026.
6. O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi. Bojxona to'lovlari bo'yicha rasmiy ma'lumotlar [Elektron resurs]. – Murojaat sanasi: 11.07.2026.
7. World Customs Organization. Annual Report 2024–2025. – Brussels: World Customs Organization, 2025.
8. International Monetary Fund. Fiscal Monitor: Fiscal Policy under Uncertainty. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2025.
9. OECD. Tax Policy Reforms 2024: OECD and Selected Partner Economies. – Paris: OECD Publishing, 2024. – 70 p. – DOI: 10.1787/c3686f5e-en.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025-yil, may.

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>